«Kuz xazinasi»

— hosil bayrami ssenariysi

«Oltin kuz» — bog‘cha va boshlang‘ich sinf

1–4-sinf o‘quvchilari uchun

Davomiyligi: 45 daqiqa atrofida

Bu ssenariy boshlang‘ich sinf uchun hosil bayrami bo‘lib, 45 daqiqa atrofida davom etadi. Kuzning uch farzandi — Sentabr, Oktabr va Noyabr o‘z sovg‘alarini aytadi, «Sabzavotlar bahsi» sahna ko‘rinishida Dehqon bobo janjallashgan sabzavotlarni palov misolida yarashtiradi. Kuzgi topishmoqlar, «Hosilni sarala» o‘yini va ota-onalar bilan yasalgan ishlar ko‘rgazmasi ham bor.

Agar ssenariy foydali bo‘lsa, uni hamkasblaringiz bilan o‘qituvchilar guruhlarida ham ulashing. Bayram va tadbirlar uchun yana ko‘plab ssenariylarni baxtiyor.uz saytidan topishingiz mumkin.

Shu to‘plam sahifasi: https://baxtiyor.uz/kuz-bayrami-ssenariy/

«Senariylar to‘plami» bo‘limi: https://baxtiyor.uz/oqituvchilar-uchun-hamma-narsa/senariylar-to-plami/

«Kuz xazinasi» — hosil bayrami ssenariysi

MAQSAD

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kuz fasli, kuz oylari, meva va sabzavotlar haqidagi bilimlarini mustahkamlash; dehqon mehnatini qadrlash, nonni va hosilni asrash tuyg‘usini tarbiyalash; sahnada so‘zlash va jamoada ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish.

ISHTIROKCHILAR

Ikki boshlovchi (3–4-sinf o‘quvchilari), «Kuz» (qiz — sariq-qizil libosda), «Sentabr», «Oktabr», «Noyabr» (uch o‘quvchi), «Sabzavotlar bahsi» sahna ko‘rinishi ishtirokchilari (Sabzi, Piyoz, Kartoshka, Pomidor, Dehqon bobo), 1–4-sinf o‘quvchilari, ota-onalar.

JIHOZLAR

Kuzgi bezatilgan zal yoki sinfxona, sahna ko‘rinishi uchun niqoblar yoki ko‘krakka taqiladigan rasmlar, Dehqon boboga do‘ppi va belbog‘, ikki katta savat («Mevalar» va «Sabzavotlar» yozuvli), aralash meva va sabzavot muljlari (yoki haqiqiy), «Kuz ko‘rgazmasi» uchun stol — bolalar ota-onalari bilan uyda meva-sabzavotlardan yasagan hunarmandlik ishlari, qog‘oz barglar, sovg‘a sifatida olma.

TAYYORGARLIK

Bir hafta oldin bolalarga uy vazifasi beriladi: ota-onasi bilan birga meva, sabzavot, barg yoki tabiiy materiallardan biror buyum yasab kelish (masalan, qovoqdan fonar, kartoshkadan tipratikan, barglardan rasm). Ishlar ko‘rgazma stoliga qo‘yiladi. Har bir ishning yoniga muallifning ismi yozilgan kartochka qo‘yilsin.

TADBIR REJASI

Ochilish va Kuzning kelishi — 5 daqiqa. «Kuzning uch farzandi» — 7 daqiqa. Sahna ko‘rinishi «Sabzavotlar bahsi» — 8 daqiqa. «Kuzgi topishmoqlar» — 6 daqiqa. «Hosilni sarala» o‘yini — 5 daqiqa. «Kuz ko‘rgazmasi» taqdimoti — 8 daqiqa. Yakun — 6 daqiqa. Jami: 45 daqiqa atrofida.

O‘QITUVCHI UCHUN ESLATMA

Sahna ko‘rinishidagi rollarni nutqi ravon bolalarga bering, lekin she‘rlarni imkon qadar ko‘p bolaga taqsimlang — har bir bola sahnaga chiqishi kerak. Ko‘rgazma ishlari baholanmaydi, har biri maqtalsin: bu ota-ona va bolaning birgalikdagi mehnati. Musiqa tavsiyasi: ochilishda kuz haqidagi bolalar qo‘shig‘i, oylar

chiqishida mayin kuy, sahna koʻrinishida quvnoq xalq kuyi, oʻyinda tez ritmli kuy, yakunda kuz qoʻshigʻi.

TADBIRNING BORISHI

(Kuz haqidagi bolalar qoʻshigʻi. Bolalar oʻrinlarida oʻtirishibdi. Boshlovchilar chiqadi.)

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz ustozlar, ota-onalar va doʻstlar! Bugun bizning sinfimizga eng saxiy, eng boy mehmon keldi.

2-boshlovchi: U oltin rangli libos kiygan, qoʻlida esa toʻla savat. U bizga olma, anor, uzum, qovun-tarvuz olib keldi. Uning nomi — Kuz!

(Musiqa. Kuz kiradi.)

Kuz: Assalomu alaykum, bolajonlar! Men — Kuzman. Yoz bilan xayrlashib, sizning oldingizga keldim. Men dalalarga oq paxta, bogʻlarga qizil olma, polizlarga shirin qovun beraman. Dehqonlar butun yil mehnat qildi — men esa ularning mehnati mevasini olib keldim. Bugun men bilan bayram qilasizmi?

Bolalar: Qilamiz!

1-oʻquvchi (sheʻr):

Xazon hidin sochur kuzning havosi,
Hali oʻchgan emas kunning safosi.
Mezon iplariday tortilar tarang,
Tolning chivigʻidan taralgan ohang.

(Oʻroz Haydar, «Kuz» sheʻridan)

1-LAVHA. «KUZNING UCH FARZANDI»

Kuz: Mening uchta farzandim bor. Ularning har biri oʻz sovgʻasi bilan keladi. Tanishing!

Sentabr: Men — Sentabrman, Kuzning toʻngʻich farzandiman. Men kelganda maktab qoʻngʻirogʻi chalinadi, bolalar yana sinflarga qaytadi. Mening kunlarim hali iliq, bogʻlarda uzum va qovun pishadi.

Sentabr (sheʻr):

Sevinch sigʻmas ichiga,
Oʻquvchi boʻlar ukam.
Uning bu sevinchiga
Sherik boʻlaman men ham.

(Erkin Vohidov, «Kunlar sekin oʻtadi» sheʻridan)

Oktabr: Men — Oktabrman. Men kelganda barglar sarg‘ayadi, qizaradi va to‘kila boshlaydi. Dalalarda paxta terimi, bog‘larda anor va behi pishadi. Qushlar esa issiq o‘lkalarga uchib keta boshlaydi.

Oktabr (she‘r):

Kuz keldi, o‘xshagancha
Mayin, dilxush navoga.
Turnalarning «qur-quri»
Taralmoqda havoga.

(Sodiqjon Inoyatov, «Kuz keldi, o‘xshagancha» she‘ridan)

Noyabr: Men — Noyabrman, Kuzning kenja farzandiman. Men kelganda kunlar qisqaradi, havo soviydi. Daraxtlar yalang‘ochlanadi, hayvonlar qishga tayyorlanadi: ayiq va tipratikan qishki uyquga ketadi, olmaxon yong‘oq g‘amlaydi.

Noyabr (she‘r):

Derazalar ochmaydi qaboq,
Oynalari – yig‘layotgan ko‘z,
Turnalardek ketmoqda uzoq,
Xayrlashadi, xayrlashadi kuz.

(Farog‘at Xudoyqulova, «Kuz» she‘ridan)

2-LAVHA. SAHNA KO‘RINISHI «SABZAVOTLAR BAHSI»

(Quvnoq xalq kuyi. Sahnaga Sabzi, Piyoz, Kartoshka va Pomidor chiqadi.)

Sabzi: Salom, do‘stlar! Bilasizmi, men eng foydali sabzavotman! Men ko‘zni o‘tkir qilaman. Mensiz osh — osh emas!

Piyoz: Shoshma, Sabzi! Men bo‘lmasam, qaysi ovqat mazali bo‘ladi? Men kasallikka qarshi kuchliman. Bobolar «Piyoz — yetmish dardga davo» deyishgan!

Kartoshka: Ha-ha! Sizlar mendan kattami? Mendan sho‘rva, qovurma, pyure, somsa tayyorlanadi. Men — ikkinchi non!

Pomidor: Men esa eng chiroyliman! Qip-qizilman, shirasi ko‘p. Yozda salatda, qishda esa tuzlamada — hamma joyda menman!

Sabzi: Yo‘q, men eng muhimman!

Piyoz: Yo‘q, men!

Kartoshka va Pomidor (birga):

Yo‘q, biz!

(Ular bir-biriga o‘girilib bahslashadi. Sahnaga Dehqon bobo kiradi.)

Dehqon bobo: Ha, bolalarim, nega janjal? Butun dalani boshingizga ko‘tarib yubordingiz-ku!

Sabzi: Bobojon, aytib bering, qaysi birimiz eng muhimmiz?

Dehqon bobo (kulib): Men sizni bir xil mehr bilan o‘stirdim. Erta bahorda yerni haydadim, urug‘ingizni ekdim, yoz bo‘yi sug‘ordim, begona o‘tlardan tozaladim. Endi aytinglar-chi, bugun kechqurun men palov damlamoqchiman. Palovga nima kerak?

Sabzi: Sabzi kerak!

Piyoz: Piyoz ham kerak!

Dehqon bobo: Ana ko‘rdingizmi! Sabzisiz ham, piyozsiz ham palov bo‘lmaydi. Kartoshka bilan pomidor esa ertaga sho‘rvaga kerak bo‘ladi. Har biringiz o‘z o‘rningizda muhimsiz. Dasturxon ham, do‘stlik ham shunday — hamma birga bo‘lsa, to‘kin bo‘ladi.

Barcha sabzavotlar (birga):

Kechiring, bobojon! Endi biz do‘stmiz!

Dehqon bobo: Barakalla! Bolalar, sizlar ham esingizda tuting: bir to‘g‘ram nonni, bir dona sabzini ham isrof qilmang. Uning ortida dehqonning butun yillik mehnati turibdi.

(Qarsaklar.)

3-LAVHA. «KUZGI TOPISHMOQLAR»

Kuz: Endi men sizga topishmoq aytaman. Kim birinchi qo‘l ko‘tarsa, o‘sha javob beradi!

Kuz (topishmoq):

Tashqarisi qip-qizil,
Ichi to‘la marjon don.
Kuzda ochilar og‘zi,
Kuladi u har qachon.

(Javob: anor.)

Kuz (topishmoq):

Sariq to‘nli, shirali,
Polizlarda yotadi.

Ichi asaldek shirin,
Hidi uzoq taraladi.

(Javob: qovun.)

Kuz (topishmoq):

Kiyimi yetti qavat,
Yechsang, yig‘latar seni.
Lekin ovqatga solsang,
Mazasi bor har kuni.

(Javob: piyoz.)

Kuz (topishmoq):

Yerning tagida yashar,
Jigarrang to‘ni bor.
Uni yesang to‘q bo‘lasan,
Qishda ham bo‘lar tayyor.

(Javob: kartoshka.)

4-LAVHA. «HOSILNI SARALA» O‘YINI

2-boshlovchi: Kuzning savatidagi mevalar va sabzavotlar aralashib ketibdi. Ikki jamoa ularni saralaydi: biri faqat mevalarni «Mevalar» savatiga, ikkinchisi faqat sabzavotlarni «Sabzavotlar» savatiga yig‘adi. Kim tez va xatosiz saralasa — g‘olib!

(Musiqa. O‘yin. Oxirida boshlovchi savatlarni tekshiradi va xato tushganlarini bolalar bilan birga to‘g‘rilaydi.)

5-LAVHA. «KUZ KO‘RGAZMASI»

1-boshlovchi: Endi ko‘rgazmamizga qarang! Bu ishlarni o‘quvchilarimiz ota-onalari bilan birga yasashgan.

(Bir nechta bola o‘z ishini qisqa taqdim etadi: «Men oyim bilan kartoshkadan tipratikan yasadim, uning tikanlari — tish kovlagichlardan» va hokazo. Har bir taqdimotdan keyin qarsaklar.)

Kuz: Qanday chiroyli ishlar! Kuzning sovg‘alaridan yana bir sovg‘a yaratibsizlar. Har biringizga «Kuzning kichik ustasi» degan maqtov yorlig‘ini beraman.

YAKUN

2-o‘quvchi (she‘r):

Dehqonbobo bug‘doyi
Yetilib pishdi rosa.
Bo‘liq boshoq quyoshdan
Oldi oltin andoza.

(Dilorom Mo‘minova, «O‘roq» she‘ridan)

3-o‘quvchi (she‘r):

Non bo‘lgach u sabr qilib
Bor sinov-otashlarga,
E‘zoz qilib ko‘zga surib,
Ko‘tardilar boshlarga.

(Dilshod Rajab, «Bug‘doyning taqdiri» she‘ridan)

Kuz: Bolajonlar, men endi ketish vaqtim yaqinlashdi. Tez orada Qish bobo keladi. Lekin men sizga oxirgi sovg‘amni qoldiraman.

(Kuz har bir bolaga olma ulashadi.)

Kuz: Bu olmalar — dehqonlarimizning mehnati. Ularni yeganingizda bir lahza dehqon bobolarni eslang va «rahmat» deng. Xayr, bolajonlar!

Bolalar: Xayr, Oltin Kuz! Rahmat!

(Kuz qo‘shig‘i. Umumiy surat ko‘rgazma yonida.)